

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
“Mehrobdan chayon” va “Tanazzul” romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliyev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa‘nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlash mashg‘ulotlarining didaktik ta‘minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Ilk qadam” davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o‘simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta‘lim talabalarida o‘quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	433
B.Q.Qurbonova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tarbiya fani asosida milliy kasibga yo‘naltrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati.....	441
N.A.Akbarova	
Farg‘ona viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroki va natijalari	445
A.A.To‘raxanov, A.A.Ergashev	
Alohida ta‘lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta‘lim muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



UO'K: 37.041:792:37.013.43

**ARTPEDAGOGIKA VOSITASIDA (TEATR SA'NATI ORQALI) TALABA YOSHLARNING
- HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI****ЧЕРЕЗ АРТПЕДАГОГИКУ (ЧЕРЕЗ ТЕАТРАЛЬНОЕ ИСКУССТВО)
ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ СТУДЕНТОВ - ВОЕННО-
ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ****THROUGH ARTPEDAGOGY (THROUGH THEATER ARTS) DEVELOPMENT FACTORS
AND PROSPECTS OF STUDENTS - MILITARY PATRIOTIC EDUCATION****Madaliev Rahmiddin Ismoilovich**

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada talaba-yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati, muzey, teatr va kino sa'nati yordamida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillash, shuningdek, teatr san'atining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Аннотация

В данной статье приводятся мнения о значении художественно-педагогического инструментария в военно-патриотическом воспитании студенческой молодежи, организации духовно-просветительских мероприятий с помощью музеев, театра и кино, а также о значении театра. искусство в воспитании молодежи.

Abstract

In this article, opinions are given about the importance of art-pedagogical tools in the military-patriotic education of students, the organization of spiritual and educational events with the help of museums, theater and cinema, as well as the importance of theater art in the education of young people.

Kalit so'zlar: teatr, axloqiy-ijtimoiy manbalar, vatanparvarlik, tarbiya, konsepsia, vatanga muhabbat va sadoqat, qahramonlik, yoshlar, qadriyat, masuliat, an'analar, meros.

Ключевые слова: театр, моральные и социальные ресурсы, патриотизм, образование, концепция, любовь и верность Родине, героизм, молодость, ценности, ответственность, традиции, наследие.

Key words: theater, moral and social resources, patriotism, education, conception, love and loyalty to the country, heroism, youth, value, responsibility, traditions, heritage

KIRISH

Ta'kidlash zarurki, o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg'u "muhabbat", "ishonch", "sadoqat" kabi axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o'z mavqeini yo'qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir. Vatanparvarlik o'zida birlashtirish, yo'naltirish, jipslashtirish, safarbar qilish kabi axloqiy, sifatlarni mujassam etganligi uchun o'zbek xalqi ma'naviy merosiga taalluqli barcha manbalarda ulug'lanadi.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Bunda pedagogik jamoalarining muhim vazifalari davlatimiz tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlarga tayangan holda talabalarni yani bo'lgusi oqituvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi nafosat qadriyatlarga yo'naltirishimiz lozim. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona zamin tabiati, milliy xalq san'ati, sharqning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish. Bu borada asosiy manba sifatida ARTpedagogika vositalari orqali milliy an'analarga boy adabiyot,

tasviriy san'at, musiqa, teatr va kino san'atning boshqa turlari bilan tanishtirish ya'ni yurtimizni diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar uyushtirish, o'zbek xalqining o'tmishdagi va zamonaviy turmush tarzi aks etgan milliy spektakllarga va muzeylarga olib borish. Bu esa, talabalarning ongida o'z xalqiga va yurtiga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytiradi, bugungi tinch-totuv, ozod turmushni muhofaza qilish uchun bor kuch-g'ayratlarini safarbar etishga undaydi.

Har qanday og'ir va murakkab vaziyatda Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalarni, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan.

Bunga misol qilib Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son "2023-2027-yillar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi" da xam yoshlarni harbiy vatanparvarlik masalasiga jismonan va ma'nan sog'lom avlodni tarbiyalashga oid yahlit ta'lim tarbiya tizimining uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralib tayyorlangan mukamal dastur deyilsa bo'ladi.

Mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsad va vazifalari, uning tizimi, asosiy prinsiplari, shakl va uslublari, shuningdek, bosqichlari va yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirishda, yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etmoqda.

Konsepsiyada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida qaror talablaridan kelib chiqib, talabalarni ya'ni bo'lgusi o'qituvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi nafosat qadriyatlarga yo'naltirishimiz lozim. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona Zamin tabiati, milliy xalq san'ati, sharqning badiiy madaniyati, tarixiga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish;

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYASI

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi", deb ta'kidlagan fikrlarini biz yoshlarimizning qalbiga singdirib borishimiz lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasi o'z xususiyatiga ko'ra murakkab va ko'p qirrali faoliyatdir. Jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida u o'z mazmuni tarkibida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy, tarixiy va boshqa xususiyatlarni qamrab oladi.

Insonning o'z vataniga yuksak emotsional-ruhiy munosabatining ifodasi bo'lib, vatanparvarlik inson ma'naviy boyligining bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Haqiqiy vatanparvarlik har doim insonning ma'naviy, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligining uzviy birligi sifatida namoyon bo'ladi va Vatan manfaatlarini uchun inson faoliyatida harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Vatanparvarlik xususiyati o'z xalqiga, millatiga va inson o'zi yashayotgan jamiyat va davlatiga nisbatan bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar birlashib, vatanparvarlikning yagona yaxlit xususiyatini tashkil qilishi kerak, chunki O'zbekistonning har bir mas'uliyatli fuqarosi uning oilasi, millatining manfaatlarini yurtimizning boshqa millat va elatlarining manfaatlarini bilan uzviy bog'liqligini yaxshi tushunadilar. O'zbekiston fuqarolarining vatanparvarligi o'zining "kichik vatani", o'z millatiga mansubligi xususiyatini, shuningdek, butun mamlakat uchun, butun O'zbekiston uchun mas'uliyat hissini ifoda etadi.

Xullas, hozirgi kunda shiddatli zamon hayotining o'zi barchamizning oldimizga o'ta muhim va murakkab vazifalarini quyayotgan el-yurtimizning turli xaf-hatarlardan asrash, uni o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanga muhabat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga ehtiromlar ruhida barkamol insonlar etib tarbiyalash jaholatga qarshi marifat bilan kurash olib borish dolzarb vazifaga aylangan bir payta teyat bu boradagi ishlarda ko'makdosh bo'la oladi.

Agar o'quvchi yoki talaba teatrni san'at turi deb qabul qilishga tayyor bo'lsa, Harbiy-vatanparvarlik va harbiy-tarixiy mavzudagi spektakllar, teatr san'atining o'ziga hos bo'lgan ifoda vositalari yordamida, spektaklda namoyish qilinayotgan davrning, milliy-ozodlik harakatining suronli

ILMIY AXBOROT

yillari ruhiy holatini tomoshabinlar diqqatiga yetkazib beradi, tomoshabinga o'zini tarixiy voqealarning bevosita qatnashchisi sifatida his qilishga imkon beradi. Shuning uchun hozirgi vaqtdagi qahramonona-vatanparvarlik mavzusidagi spektakllar, tomoshabinlar diqqatiga qaratilgan ruhiy his-hayajonli murojaatdan boshlanadi.

Albatta teatrda namoyish etilayotgan xalq madaniyatiga oid asarlar ajdodlarining o'tmishi, hayoti, yuksak ma'naviyatidan darak berib, uning vositasida Vatanga bo'lgan muhabbat, otabobolari qoldirgan madaniy merosga nisbatan hurmat, e'zoz, ularga munosib vorislar bo'lish tuyg'usini uyg'otadi. Shuningdek, yoshlarni odobu axloqqa, halolligiga poklikka, botirlikka, mardlik, vatanni himoya qilish, ajdodlaridek sabr-qanoatli, aqilli, adolatli, mehr-muruvvatli bo'lishga chaqiradi.

Ayniqsa yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan teatrlarga tashriflar sonini kopaytirish bilan, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni, oliy ta'lim muassasalari talabalarining teatr san'atiga bo'lgan e'tibori, qiziqishlarini oshirmog'imiz lozim bu orqali ta'limiy-tarbiyaviy tushunchalarini, tasavvur olamini boyitishimiz mumkin bo'ladi. Imkon qadar teatr san'atining ahamiyati haqida yoshlar, ularning ota-onalariga ma'lumot, tushunchalar berib targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish lozim. Teatrlarimizda sahnalashtirilayotgan sahna asarlarining asosiy maqsadi ham kelajak yosh avlodni ma'naviy barkamol, yetuk insonlar qilib, ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak.

MUHOKAMA NATIJALARI

Turkiston jadidchilik harkatining asoschisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning: „Teatr ibratxonadir,“ degan mashhur iborasi qanchalik o'rinni ekanligini bugungi kunda ham anglashimiz mumkin. Sababi shuki, teatr-tarbiya maskani, bu dargohda spektakllar tomosha qilib inson o'ziga ma'naviy ozuqa oladi, oq va qorani farqiga borishni, ko'proq insonlarga yaxshilik qilishni o'rganadi hamda madaniy hordiq oladi.

Teatr (yunoncha theatron-tomosha joyi, tomosha) tomoshaviy san'atning asosiy turi. Teatr san'ati boshqa san'atlardan farqlashuvchi o'zigagina xos xususiyatlarga ega Teatr san'ati - nafis san'at turlaridan bo'lib, o'zining emotsional jihatlari bilan barkamol insonning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pesadagi so'zlarini o'zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi xarakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktning yoritilishida muhim o'rin tutadi. Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomligi (ssenografiya)ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni va rejasi yechimidan kelib chiqib, dekoratsiya yaratadi. Ta'limda musiqaning ham o'rni katta, tomosha turi va janriga bog'liq holda u turli vazifani bajaradi: dramatik spektakllarda yordamchi vosita bo'lsa, operetta, musiqali dramada so'z bilan barobar huquqqa ega, opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi deb ta'kidlab o'tilgan. Demak teatrga bugun tomoshabinlarni, ayniqsa yoshlarni jalb qilish, ushbu san'at turidan bahramand qilish zarur.

Albatta bunda yosh avlodning ongiga yoshligidan bu san'atning mayda bo'g'inlaridan boshlab sekin asta singdiriladi. Masalan, kelajak avlod tarbiyasini Maktabgacha bo'lgan ta'lim tashkilotlarida ya'ni bog'chalarda ertak sahnalarini ko'rsatish orqali, maktab yoshidagi va hattoki institut talabalariga ham o'zlarinig yoshlariga va aqliy salohiyatlariga moslab teatrda turli mavzudagi spektakllar namoyish qilish orqali yoshlarimizning tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib borsak bo'ladi. Teatr sohasini yanada rivojlantirish uchun, ta'lim tashkilotlari va maktablarda teatr to'garaklari tashkil etilib, ularni rivojlantirish uchun kichik sahna ko'rinishlari sahna asarlarini sahnalashtirib o'quvchilarga ko'rsatishimiz va bu to'garaklarga yordam berish, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'nalishlar ko'rsatish maqsadida teatr aktyorlarini jalb qilish ustoz shogird an'anasini davom ettirishimiz lozim.

Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asirlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab qalblarda oliyanob fazilatlar, go'zal his tuyg'ularni kamol

toptirishga, jamiyat hayotida tinchilik, do'stlik va hamjihatlik yuksak ahloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga hizmat qilib kelmoqda.

So'nggi yillarda barcha sohalar qatori bizning yurtimizda xam madaniyat tizimida, jumladan, teatrlarimiz hayotida ham tub o'zgarishlar amalga oshirilayotganligi barchamizga ma'lum.

Shu manoda fikrimiz tasdigi manosida kuni kecha, Prizentimizning 2023-yil 22-dekabr kunidagi Manaviyat va marifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida teatr sa'natini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqilishini takidladi. Unda eng yaxshi piyesalar uchun ijodiy buyrtma berish, ijodiy va yordamch hodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo'lab-quvatlash uchun "Mannon Uyg'ur" nomidagi mukofat tasis etish kabilar nazarda tutilgan bo'lib korxon va muassasalarda o'ning bir kuni "Teatr kuni" deb belgilanib, hodimlarning teatrga borishi yo'lga qo'yiladi - deb takidladilar.

Bugungi kunda biz, ya'ni yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullannayotgan barcha jabxa vakillari, Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqini tinglar ekanmiz, buni yanada teranroq his qilgan holda ko'rsatilgan maqsad va asosiy vazifalaridan kelib chiqib, yoshlarni millatimiz qadriyatlariga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishimiz zarurdir. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni mana'viyat suvidan sug'orilgan tarbiya bilan, pedagogik vositalarning zamonaviy vositalaridan unumli foydalangan xolda tarbiyalasak biz qurayotgan yangi jamiyatimiz gullab yashnaydi.

XULOSA

Xullas bizning o'lkamizda, dunyo havasining keltiradigan buyuk tariximiz bor. Nasib etsa havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk ma'naviyatimiz adabiytimiz va san'atimiz ham albata bo'ladi. Manaviy-marifiy sohada Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar ijrosi hammamizdan fidoyilik va bunyodkorlikni, yanada katta safarbarlikni talab etmoqda. Bu yo'lda biz pedagoglar, murabbiy (tyutor)lar o'zimizning bilmimiz bilan mamlakatimizni tinchligi va osoyishtaligi yo'lida xalqimizning farovonligi uchun xarakter qilmog'imiz, ma'naviyat va marifat suvi bilan sug'orilgan tarbiya vositasida yangi avlod kadrlarini etishtirish, yoshlarni tashabbuskor, bunyodkor, vatanparvarlik kabi g'oyalari bilan kasb-hunarga yo'naltirishimiz zarurdir. Talaba- yoslar bilan ishlashda yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan unumli foydalangan holda, mashg'ulotlar xamda mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda, ya'ni axborot soati, ma'naviy-marifiy tadbirlarni tashkillashtirishda, kitobxonlik kechalarida qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishonchimiz komilki qahramon ajdodlarimizning jasoratiga sodiq bo'lgan yoshlarimiz farovon hayotni qadrlab, uni yanada mustahkamlash yo'lida bor kuch-g'ayratlarini safarbar etadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari"- to'g'risidagi 26.05.2020-yildagi PF-6000-sonli Farmoni
2. "2023-2027 yillar yoshlar harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish kompensiyasi". Vazirlar mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabr kunidagi Respublika Manaviyat va marifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi materiallari. "Xalq sozi"- 2023-yil 23-dekabr soni.
4. O'tkir Raxmat. "YAngi uyg'onish davri poydevorini yaratishda mustahkam tayanch" mavzusidagi maqola materiallari. "Xalq sozi"- 2023-yil 27-dekabr soni.
5. Uzoqov Akbarjon Axrorovich. "TEATR SAN'ATIDA YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI OBRAZINING TALQINI"- mavzusidagi maqola. "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor" - jurnali 2022- yil 464-bet.
6. Madaliev R. "Talaba-yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarining ahamiyati" *FarDU ilmiy xabarlari* 2023 y. №1son 51b.
7. Madaliev R. "Talabalarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogik vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari" mavzusidagi maqola. *FarDU Respublika ilmiy amaliy anjumani* 20-may, 2023-yil 136-136-b.
8. Madaliev R. "Talaba-yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositasida rivojlantirish texnologiyasi" mavzusidagi maqola. "Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti" jurnali 1/8/1, 2023y. 137-139-b.
9. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Talaba - Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida ARTpedagogik vositasida rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari" mavzusidagi maqola. *Oriental Renaissance: Innovative, educational natural and social sciences* jurnali 3(4/2), aprel.2023 y.51-56 b.
10. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Talaba - Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida ARTpedagogik vositalarining ahamiyati" mavzusidagi maqola. *Finlandiya xalqaro jurnali*. 22.03.2023 y.716-721 b.
11. SH.X.Tillavoldiev. "Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari" darslik. Farg'ona- 2023 yil.